



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING QARORI

2025-yil 5-iyun

VII-10-82-11-0-K/25

Farg‘ona viloyati

### **Viloyat hokimligi huzuridagi «Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularni chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyasi»ning viloyatdagi mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini optimallashtirish bo‘yicha xulosasini ko‘rib chiqish haqida**

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan, O‘zbekiston mahallalari uyushmasiga Kadastr agentligi bilan birgalikda respublikadagi barcha mahallalarni xatlovdan o‘tkazish, ularning aniq chegaralarini belgilash, bunda har bir mahallaning chegarasi bir aholi punkti (shahar, shaharcha, qishloq va ovul) doirasida bo‘lishini ta‘minlash, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda mavjud mahallalar faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, boshqaruv jihatidan o‘zini oqlashi yuzasidan o‘rganishlarni olib borish hamda ushbu talablarga javob bermaydigan mahallalarni birlashtirish va ixchamlashtirish choralarini ko‘rish tavsiya etilgan.

Shunga ko‘ra, viloyat hokimligi huzuridagi Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularni chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyasi (keyingi mantlarda - Idoralararo doimiy komissiyasi)ning ishchi organi-O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi 2025 yil 19 maydagi 02-09/01-05/359-sonli aloqa xati orqali viloyat Kengashiga murojaat qilinib, bu borada amalga oshirilgan ishlar ma‘lum qilingan.

Unda, viloyatdagi mavjud 1062 ta mahallalar xatlovdan o‘tkazilib, ularning aniq chegaralari, faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi hamda boshqaruv jihatidan o‘zini oqlashi yuzasidan tahlillar olib borilgan.

O‘rganish va tahlillar natijasida ayrim mahallalarni birlashtirish va ixchamlashtirish yuzasidan dastlabki takliflar ishlab chiqilib, tegishlilik bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini va uning huzurida tashkil etilgan fuqarolar yig‘inlari kengashlariga taqdim etilgan.

Mazkur takliflarni ma‘qullash yuzasidan mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan tuman (shahar) hokimliklariga kiritilgan iltimosnomalar hokimliklar tomonidan ko‘rib chiqilib, Idoralararo komissiyaga tegishli aloqa xatlari orqali takliflar kiritilgan.

Jumladan,

- Qo‘qon shahridagi “Buloqboshi”, “Qipchoqariq”, “Navbaxor” “Bunyodkor”, “Ustabozor”, “Istiqlol”, “Obod”, “Amir Temur”, “Ziyolilar” va “Temiryo‘lchi”;

- Marg‘ilon shahridagi “Baynalminal”, “Iqbol”, “Sholdirma”, “Uzumzor”, “Uzun xovuz” va “Yangi xayot”;

- Beshariq tumanidagi “Boy”, “Beshariq”, “Chorbog‘”, “Adolat” va “Nabi”;

- Bog‘dod tumanidagi “Paxtaobod”, “Saxovat” va “Mirishkor”;

- Buvayda tumanidagi “Jilva” va “Xonobod”;

- Dang‘ara tumanidagi “Tangriqul” va “Qora ko‘rpa”;

- Yozyovon tumanidagi “Tegirmonboshi”;

- Quva tumanidagi “Do‘stlik” va “Gumxona”;

- Qo‘shtepa tumanidagi “Bo‘ston” va “Mumtoz”;

- Oltiariq tumanidagi “Guliston”, “O‘zbekiston” va “Oltiariq”;

- Rishton tumanidagi “Farovonlik”, “Gumbaz” va “Dorulomon”;

- So‘x tumanidagi “Soxibkor”, “Sebzor”, “So‘x”, “Zangat” va “Istiqlol”;

- O‘zbekiston tumanidagi “Olmazor” va “Naymansoy”;

- Uchko‘prik tumanidagi “Anhor bo‘yi”;

- Farg‘ona tumanidagi “Yangiobod” va “Qorayantoq”;

- Furqat tumanidagi “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig‘inlarini qisqartirish ya’ni boshqa bir mahallalarga birlashtirish (optimallashtirish) bo‘yicha takliflar berilgan.

Hokimliklar tomonidan kiritilgan mazkur takliflar dastlab viloyat hokimligi ishchi guruhi tomonidan organib chiqilib, tegishli ijobiy xulosa tasdiqlangan.

Shuningdek, mazkur takliflar Idoralararo komissiya tomonidan ham ko‘rib chiqilib, barcha takliflar ma’qullangan holda komissiyaning 2025 yil 19 maydagi 167/01-49-sonli bayoni rasmiylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi matnlarda-Nizom)da xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan navbatdagi sessiyada Idoralararo komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqishi va mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish yoki ushbu taklifni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilishi belgilangan.

Viloyatda mahallalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, faoliyatini tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ularda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi “Mahallalar faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 4-martdagi 48-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 294-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Viloyatda mavjud mahallalar faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, boshqaruv jihatidan o‘zini oqlashi yuzasidan olib borilgan o‘rganish yakunlari hamda ushbu talablarga javob bermaydigan mahallalarni birlashtirish va ixchamlashtirish bo‘yicha shakllantirilgan takliflar yuzasidan Idoralararo doimiy komissiyasi ishchi organi - O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i A.Ziyavitdinovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- viloyat ishchi guruhining xulosasi hamda Idoralararo doimiy komissiyasining 2025 yil 19 maydagi 167/01-49 - sonli bayoni (xulosasi);

- Idoralararo doimiy komissiyasi ishchi organi - O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasining 2025 yil 19 maydagi 02-09/01-05/359- sonli xati inobatga olinsin.

3. Idoralararo doimiy komissiyaning viloyatdagi faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri va samarali yo‘lga qo‘yilmagan, boshqaruv jihatidan o‘zini oqlamayotgan ayrim mahallalarni birlashtirish va ixchamlashtirish yuzasidan taklifi ma‘qullansin va bu bo‘yicha tahliliy jadval ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirishda amalga oshiriladigan tadbirlar” sxemasiga (talablariga) asosan O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i A.Ziyavitdinovga 1-va 2- bosqichlar, tuman (shahar) hokimlariga 3-bosqich hamda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i R.Mirzaxmedovga 4-bosqich doirasida ishlar to‘liq va sifatli amalga oshirilganligi yuzasidan shaxsiy mas‘uliyat va javobgarlik yuklansin.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov) tegishli hokimliklar vakillari hamda mahalliy kengash deputatlari bilan birgalikda birlashtirish va ixchamlashtirish nazarda tutilayotgan mahallalarga borgan holda hudud aholisi, mahalla faollari va mahalla ettiligi vakillari, shuningdek fuqarolar yig‘inlari Kengashlari a‘zolari bilan uchrashgan holda tushuntirish va targ‘ibot tadbirlarini olib borsin.

6. Idoralararo doimiy komissiyasi a‘zolariga:

- mazkur Kengash qaroriga asosan mahallalarni boshqa bir mahallarga birlashtirish (qo‘shish) ishlarini amaldagi qonunchilik asosida amalga oshirsin;

- mahallalarni boshqa bir mahallalarga birlashtirish (optimallashtirish) natijasida ixchamlashgan (hududiy chegarasi kengaygan hamda aholi va xonadonlar soni ortgan) mahallalarni tashkiliy-huquqiy va moliyaviy jihatdan samarali yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

7. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Miraxmedov) mahallalarning chegaralarini aks ettirgan va tavsiflagan holda, mahallalar hududi chizmasini tayyorlasin hamda qo‘shni mahallalarning fuqarolar yig‘inlari bilan kelishish ishlarini o‘z vaqtida va tizimli tashkil etsin.

8. Optimallashtirish mahalla fuqarolar yig‘inlari (fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari) hodimlari hamda ushbu mahallalarga biriktirilgan holda faoliyat yuritayotgan (ishlayotgan) “mahalla ettiligi” hodimlari bilan yakka tartibdagi mehnat munosabatlari amaldagi mehnat qonunchiligi talablaridan chetga chiqmagan holda amalga oshirilsin.

9. Belgilansinki, mazkur kengash qarori ijrosi faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirishda amalga oshiriladigan tadbirlar” sxemasining 1-, 2- va 3-bosqichlarida amalga oshirilishi belgilangan ishlar (tadbirlar) to‘liq va sifatli bajarilgan mahallalar doirasida ta’minlanadi.

10. Tegishli tuman (shahar) hokimliklari aloqador (manfaatdor) tashkilotlar bilan birgalikda optimallashtirilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini amaldagi tartib asosida amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

11. Belgilansinki, mazkur Kengash qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 17-bandi talablaridan kelib chiqib, mahallalarni tugatish uchun asos bo‘lmaydi.

12. Ushbu qaror viloyat hamda tegishli tuman (shahar) hokimliklarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

13. Mazkur kengash qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Sh.G‘aniyeva) hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Polvonov zimmasiga yuklansin.

14. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Komilov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining  
2025-yil 5-iyundagi  
VII-10-82-11-0-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

Ilova

**Farg‘ona viloyatidagi mahallalarni optimallashtirish (birlashtirish) yuzasidan  
TAHLILY JADVAL**

№	Birlashtirilgan mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qo‘shni mahallaga birlashtiriladigan ko‘rsatkichlari			Qo‘shni mahallaning mavjud ko‘rsatkichlari				Qo‘shilish natijasi ko‘rsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
<b>Qo‘qon shahar</b>														
1	Istiqlol	33,1 ga	4525	887	16,0	3172	443	Shaldiramoq	24,9	3598	1347	40,9	6770	1790
					17,1	1343	444	Kalvak	42,2	4746	926	59,3	6089	1370
2	Buloqboshi	46,3	4756	1223	46,3	4756	1223	At-Termiziy	61,4	3700	650	107,7	8456	1873
3	Qipchoqariq	28,9	3350	603	16,9	1675	300	Sadoqat	32,1	1902	301	49	3577	601
					12	1675	301	Vaqf chorsu	29,7	2998	588	41,7	4 673	889
4	Usta bozor	58,7	2584	594	26	1292	297	To‘g‘onboshi	45,5	4289	889	71,5	5581	1186
					32,7	1292	297	G‘oziyog‘liq	78,5	5100	750	111,2	6392	1047
5	Navbaxor	34,6	3219	346	34,6	3219	346	Saodat	117,8	3944	744	152,4	7163	1090
6	Bunyodkor	27,8	2357	404	27,9	2357	404	Sobir Abdulla	47,6	4756	588	75,5	7113	992
7	Obod	60	2646	622	60	2646	622	G‘ishtlimasjid	65,1	4464	952	125,1	7113	1574

№	Birlashtirilgan mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qo'shni mahallaga birlashtiriladigan ko'rsatkichlari			Qo'shni mahallaning mavjud ko'rsatkichlari				Qo'shilish natijasi ko'rsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
8	Amir Temur	25,7	1107	300	25,7	1107	300	Shikorbegi	80,3	4610	1150	106	5717	1450
9	Ziyolilar	113	3896	798	113	3896	798	Mo'yimuborak	154	3248	753	267	7144	1551
10	Temir yo'lchi	53,2	3745	723	53,2	3745	723	Chorchinor	61,5	3855	661	114,7	7600	1384
<b>Marg'ilon shahar</b>														
11	Baynalminal	22,7	2606	402	22,7	2606	402	Baxrin	55,28	3631	520	77,98	6237	922
12	Iqbol	20,38	2449	360	20,38	2449	360	Go'riavval	33,86	3145	575	54,24	5594	935
13	Sholdirama	32,05	3729	477	32,05	3729	477	Uvaysiy	20,77	2341	315	52,82	6070	792
14	Uzumzor	49,74	5139	476	49,74	5139	476	Z.M.Bobur	72	4807	712	121,74	9946	1188
15	Uzun xovuz	19,96	2425	397	19,96	2425	397	O'rda tagi	19,97	2222	405	39,93	4647	802
16	Yangi hayot	86,67	4485	796	86,67	4485	796	Vatan	12,97	3283	794	99,64	7768	1590
<b>Beshariq tumani</b>														
17	"Boy"	43,3	2047	392	43,3	2047	392	"Fayzobod"	120,54	5129	941	163,84	7176	1333
18	"Beshariq"	590,85	2342	427	590,85	2342	427	"Dexqonto'da"	1093,63	6654	1186	1684,48	8996	1613
19	"Chorbog'"	221,3	2437	552	221,3	2437	552	"Obod"	293,78	5880	1153	515,08	8317	1705
20	"Adolat"	378,2	2825	525	378,2	2825	525	"Uzun"	598,6	5210	923	976,8	8035	1448
21	"Nabi"	956,93	3823	581	956,93	3823	581	"Namuna"	1720,69	7399	1255	2677,62	11222	1836
<b>Bog'dod tumani</b>														
22	Paxtaobod	73,4	3369	550	73,4	3369	550	Cho'rindi	151	3750	604	224,4	7119	1154

№	Birlashtirilgan mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qo'shni mahallaga birlashtiriladigan ko'rsatkichlari			Qo'shni mahallaning mavjud ko'rsatkichlari				Qo'shilish natijasi ko'rsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
23	Saxovat	120,1	3032	550	120,1	3032	550	Ko'shchinor	142,6	3112	580	262,7	6144	1130
								Mexnatobod	146,1	4045	775	107,7	4045	1873
24	Mirishkor	50,2	3529	719	50,2	3529	719	Xo'jaqishloq	143,1	2860	557	193,3	6389	1276
<b>Buvayda tumani</b>														
25	Jilva	296,5	2938	528	296,5	2938	528	Xakimto'ra	257,7	3258	601	554,2	6196	1129
26	Xonabod	301,6	3225	574	301,7	3225	574	Qo'rg'onobod	259,1	2125	370	560,8	5350	944
<b>Dang'ara tumani</b>														
27	Qora ko'rpa	70,5	3732	693	41,2	2389	441	Teliming	80,00	4110	732	121,2	6499	1173
					29,3	1343	252	Chinobod	81,90	2603	542	111,2	3946	794
28	Tangriqul	36,7	2242	503	36,7	2242	503	Naymancha	154,00	4115	1020	190,7	6357	1523
<b>Yozyovon tumani</b>														
29	Tegirmon-boshi	40,5	2620	344	40,5	2620	344	Yozyovon	63	2802	718	103,5	5422	1062
<b>Quva tumani</b>														
30	Gumxona	59,2	2179	387	59,2	2179	387	"Soyguzar"	122,4	4455	771 ta	181,6	6634	1158
31	Do'stlik	47,3	2643	424	47,3	2643	424	"Xonobod"	121,5	6063	1034 ta	168,8	8706	1458
<b>Qo'shtepa tumani</b>														
32	Mumtoz	68,5	2840	509	68,5	2840	509	Istiqlol	564,2	3988	635	632,7	6828	1 144
33	Bo'ston	90,1	3206	614	90,1	3206	614	Vatan	175,0	2883	518	265,1	6089	1 132
<b>Oltiariq tumani</b>														

№	Birlashtiriladigan mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qo'shni mahallaga birlashtiriladigan ko'rsatkichlari			Qo'shni mahallaning mavjud ko'rsatkichlari				Qo'shilish natijasi ko'rsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
34	O'zbekiston	29	1680	267	29	1680	267	Yangi-xayot	51,7	3236	758	80,7	4916	1025
35	Guliston	31,9	1630	456	31,9	1630	456	X.Olimjon	46,2	2630	550	78,1	4260	1006
36	Oltiariq	15,7	1897	411	15,7	1897	411	Bug'doychi	42,8	1610	256	58,5	3507	667
<b>Rishton tumani</b>														
37	Gumbaz	119,9	1122	238	119,9	1122	238	Chinnigaron	48,6	2550	511	168,5	3672	749
38	Dorul-omon	12	1753	233	12	1753	233	Navoiy	163,4	1815	420	175,4	3568	653
39	Farovonlik	49,5	1423	318	49,5	1423	318	Anxor bo'yi	48	3050	550	97,5	4473	868
<b>So'x tumani</b>														
40	Istiqlol	39,9	2850	512	39,9	2850	512	Rovon	40,8	1852	303	80,7	4702	815
41	Soxibkor	34,52	2455	425	34,52	2455	425	Tul	44,2	2853	505	78,72	5308	930
42	So'x	26,2	2385	278	26,2	2385	278	Mulgon	40	2867	506	66,2	5252	784
43	Zangat	130,8	2801	548	130,8	2801	548	Chumoqcha	29,8	3100	576	160,6	5901	1124
44	Sebzor	72,1	2805	543	72,1	2805	543	Qaqir	47,6	2669	538	119,7	5474	1081
<b>Uchko'prik tumani</b>														
45	Anxor bo'yi	34,5	2145	480	34,5	2145	480	Yakkamulla	65	3354	721	99,5	5499	1201
<b>O'zbekiston tumani</b>														
46	Naymansoy	37,45	2127	507	19	1128	255	Katta qaynar	35,5	2210	508	54,5	3338	763
					18,45	999	225	Avg'on	60	3010	587	78,45	4009	812
47	Olmazor	53,5	2670	516	53,5	2670	516	Qirqketmon	55	2552	506	108,5	5222	1022
<b>Farg'ona tumani</b>														

№	Birlashtiriladigan mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qo'shni mahallaga birlashtiriladigan ko'rsatkichlari			Qo'shni mahallaning mavjud ko'rsatkichlari				Qo'shilish natijasi ko'rsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
48	Qora yantoq	57,5	2075	511	57,5	2075	511	Obod	58,7	2305	526	116,2	4380	1037
49	Yangiobod	92,4	3626	684	92,4	3626	684	Oqbilol	72	3456	650	164,4	7082	1334
<b>Furqat tumani</b>														
50	Mustaqillik	92,7	2626	525	92,7	2626	525	Navbaxor	22	2340	515	114,7	4966	1040